© 2026 Arabian International Conference on Science,Technology and Innovation. All rights reserved.

Arabian International Conference on Science, Technology and Innovation (AICSTI 2026)

O‘ZBEK ELINING TARIXIY SHAKLLANISHIDA IJTIMOIY MUNOSBATLAR VA AN’ANAVIY TURMUSH TARZI

Abduraxmonov Ikromjon Muhammadumarovich
Diniy-ma’rifiy sohada malaka oshirish va qayta tayyorlash instituti
“Ijtimoiy va mutaxassislik fanlari” kafedrasi o‘qituvchisi
iphone12x12@icloud.com
ORCID: 0009-0004-0232-9421
tel: +99877-276-65-76
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23756536

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek elining tarixiy shakllanishida urug‘-qabila aloqalari, ijtimoiy munosabatlar va an’anaviy turmush tarzining o‘rni tarixiy-etnografik adabiyotlar asosida yoritiladi. Etnik nomlar va guruhiy mansublikning siyosiy-tarixiy sharoitlar bilan bog‘liqligi, qarindoshlik va nikoh munosabatlari, shajara an’analari hamda jamoaviy aloqalarning davomiyligi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, yosh guruhlari, o‘zaro bellashuv marosimlari, jo‘rachilik va ulfatchilik an’analarining ijtimoiy hayotdagi vazifalari tahlil qilinadi. Ushbu munosabat va an’analar tarixiy xotira, guruhiy o‘zlik hamda jamoaviy hamjihatlikni o‘rganishning muhim jihatlari sifatida talqin etiladi.

Kalit so‘zlar: o‘zbek eli, etnogenez, etnik tarix, urug‘-qabila munosabatlari, etnonim, qarindoshlik, nikoh munosabatlari, shajara, an’anaviy turmush tarzi, yosh guruhlari, marosimlar, jo‘rachilik.

Qadim o‘tmish davrlarda qabilalar, urug‘lar bir-birlari bilan turli munosbatlar bilan maslan birlashib ittifoq tuzishib yoki qarama-qarshiliklar natijasida yangi qabila va urug‘lar paydo qilgan. Ko‘pincha hukmron qabila yoki urug‘ millat nomini boshqa qabila va urug‘lar ham olganlar. Chunki, hukmron qabila va urug‘ga bazi bir imkoniyatlar berilgan. Ayniqsa, XI-XII asrlarda undab keying xatto temuriylar davrida ham mo‘g‘ullarning 200-300 yillik hukmronligi yoki mavqeining yuqori bo‘lishi ko‘p qabila va urug‘lar o‘zlarini mo‘g‘ullardan kelib chiqqanmiz, deb yurishgan. Bundan tashqari, kuchsiz, kam sonli urug‘lar, bo‘g‘inlar ham kuchli, hukmron qabila panohida yashab, o‘zlarini o‘sha qabiladan deb hisoblashgan. Shuning uchun ham, bir qabila yoki urug‘ning tarixiy kelib chiqishi haqidagi asarlarga nazar solinganda, uni kim va qachon, qanday sharoitda yozilganligini hamda o‘sha davr siyosiy hayotini ham hisobga olgan holda mulohaza kilish kerak bo‘ladi. Chunki, biron-bir urug‘ning kelib chiqishi balkim etnonim nom bo‘lmasdan siyosiy ma’noda aytilgan bo‘lishi ham mumkin[1]. Suyun Qorayev urug‘, qabila, elat va xalq nomlarini etnonimlar doirasida o‘rganib, ularning tahlili xalqlar etnogenezini chuqurroq yoritishga yordam berishini ta’kidlaydi.[2] Shu jihatdan, yuqorida qayd etilgan nomlarning tarixiy mazmunini aniqlashda etnografik ma’lumotlarni tilshunoslik dalillari bilan birgalikda ko‘rib chiqish muhimdir.

O‘zbekistonda yashovchi barcha qabila va urug‘larning ota-bobolari qadim qadimdan bir-biri bilan qiz olib qiz berib quda-anda[3] bo‘lib kelishgan. Har bir qabila, urug‘ yoki bo‘g‘inning boshqalar

[1] Norali Norboyev. O‘zbek elining qabila va urug‘lari haqida. “Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti” nashriyoti. Toshkent. 1997. – B. 1.

[2] Qorayev, S. *Toponimika: o‘quv qo‘llanma*. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. — 320 b

[3] Anda-odatda qadimiy turkiy xalqlarning udumiga asosan ikki inson bosh barmoqlaridan ozgina qon chiqarib bir-birining barmog‘ini-barmog‘iga bosadi. Natijada, qon qo‘shiladi. Demak, o‘g‘il yoki qiz tomon quda-anda

© 2026 Arabian International Conference on Science,Technology and Innovation. All rights reserved.

uchun namuna bo‘ladigan o‘ziga xos urf-odati, madaniyati, turmush tarzi mavjud. Ular haqida ma’lumotga ega bo‘lish, o‘z urug‘i, ajdodlarini bilish genetik fani nuqtai nazaridan ham zarurdir. Chunki, genlarning uzoq avlodlari chatishtirilganda sog‘lom va baquvvat avlod yetishadi[4].

O‘zbekistonda yashovchi qozoq, qirg‘iz, turkman, boshqird, no‘g‘ay, oltoy, totar, tuva, qoraqalpoq, yaqut, uyg‘ur, mo‘g‘ul, ozarbayjon, qolmoq kabi qabila va urug‘lar Turkiya, Afg‘oniston, Shimoliy Eron, Iroq va boshqa mamlakatlarning ham etnik tarkibida uchraydi. Shuning uchun ham, qabila va urug‘ni o‘rganish turli xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Chunki, asosan Markaziy Osiyo xalqlarining tuprog‘i, suv va havosi, daryolari, tog‘lari va go‘zal tabiati bir-biriga tutash bir o‘lkadir.

Hozirgi davrda Markaziy Osiyo mamlakatlari mustaqil bo‘lib ketgan bo‘lsada, ular yot el emas, balki bir-biriga yondosh, qardosh, og‘a-ini, quda-anda ellardir. Karim Shoniyozov o‘zbek xalqining shakllanish jarayonini yoritishda uning tarkibida qatnashgan etnik guruhlar, ular yashagan hududlar, ijtimoiy-iqtisodiy hayot va qo‘shni xalqlar bilan aloqalarni o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganadi.[5] Bunday yondashuv qabila va urug‘lar tarixini kengroq hududiy hamda madaniy munosabatlar doirasida tahlil qilish imkonini beradi.

O‘zbek elining qabila va urug‘lari sonini tarixiy manbalarda olimlar o‘z davridagi ma’lumotlarga qarab turli xil ko‘rsatgan. Ayrim manbalarda 32 bovli eli deb ko‘rsatilgan bo‘lsa, Markaziy Osiyo mamlakatlarida yashayotgan turkiy xalqlarni hisobga olingan holdagisi keyinrok 92 bovli o‘zbek elatini tashkil qilgan. 92 bovli o‘zbek eli deganda nafaqat hozirgi O‘zbekiston hududidagi, shuning bilan birgalikda, Qozog‘iston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Volga bo‘ylari xalqlari Boshqirdiston, No‘g‘oy avtonom respublikasi, totarlar, Oltoy, Tuva, Yaqutlar, uyg‘urlar hamda Mo‘g‘uliston hududida yashovchi turkiy xalqlarni e’tiborga olish kerak.

O‘z davrining mashhur olimi tarixchi Rashiduddin Fazlulloh Hamadoniy (1247-1318) “Jome at-tavorix” (Bu asar muallif tomonidan 1302-1311 yillarda fors tilida yozilgan) asarida turkiy xalqlarning qabila, urug‘lari haqida batafsil ma’lumot beradi. Asarning eng muhim tomonlaridan biri shundaki, mo‘g‘ullarni siyosiy birlashmalariga kirgan turkiy xalqlarni mo‘g‘ullar deb atay boshlaganini qayd etgan. Rashididdin o‘z fikrini davom ettirib “Ularning hozirgi avlodlari o‘zlarini qadimgi vaqtlardan beri mo‘g‘ullarga qo‘shilib kelgan, deb hayol qiladilar. Holbuki, bunday emas, balki qadimgi vaqtda mo‘g‘ullarning o‘zlari ham cho‘llarda yashovchi turkiy xalqlarning bir bo‘lagi xolos”[6], degan.

O‘zbeklarda urug‘chilik munosabatlari nafaqat temuriylar, undan keyingi davrlargacha ancha sezilarli namoyon bo‘lgan. Ular o‘z urug‘i va qabilasiga yaqinligini sezgan holda hatto hududiy jihatdan uzoqlashib ketgan taqdirda ham urug‘dosh va qabiladoshlari bilan aloqani mustahkam saqlab kelganlar. Agar ayrim oilalar o‘z urug‘doshlaridan uzoq davr ajralib ketgan bo‘lsa ham ajdodlar shajarasini saqlab, zarur bo‘lganda yordam qo‘lini cho‘zishga tayyor bo‘lganlar. Ba’zan shunday o‘zaro aloqa uzilgan qabiladoshlar, hatto o‘ninchi avlod shajarasini yoddan bilganlar. Ayniqsa, Janubiy O‘zbekistonda o‘tgan asr oxirlarigacha saqlanib kelgan qabilalar ayrim urug‘lar yoki urug‘ bo‘linma (qism)lardan iborat bo‘lgan[7].

Ma’lumki, urug‘ deyilganda bir ajdoddan tarqalgan yirik oilaviy birikma tushunilgan. Qo‘shni qozoq, qoraqalpoq va boshqa xalqlardagidek, o‘zbek urug‘larida ekzogam nikoh bo‘lmagan, aksincha,

---

degani qonimiz qonimizga qo‘shildi demakdir. Anda bo‘lishning shartlaridan yana biri bir-biriga hech qachon dushmanlik qilmaslikdir.

[4] Norali Norboyev. O‘zbek elining qabila va urug‘lari haqida. “Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti” nashriyoti. Toshkent. 1997. – B. 2. (b 84)

[5] Shoniyozov, K. *O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni*. — Toshkent: Sharq, 2001. — 464 b.

[6] Norali Norboyev. O‘zbek elining qabila va urug‘lari haqida. “Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti” nashriyoti. Toshkent. 1997. –B. 4.

[7] Iso Jabborov. O‘zbeklar: turmush tarsi va madaniyati. Toshkent-2003. O‘qituvchi. –B. 68.

© 2026 Arabian International Conference on Science,Technology and Innovation. All rights reserved.

ularda kuzen nikoh, ya'ni o'z urug'dosh (amakivachcha, xolavachcha, ammavachcha, doyijiyan) lari orasidagi endogam nikohning keng tarqalganligi XIX asr oxirlari – XX asr boshlariga kelib asli urug'-qabilaviy munosabatlarning yemirilganligini ko'rsatadi. Ammo, ayrim jamoachilik an'analarining turg'un saqlanishi ularning urug'chilik tuzumidan to'la ajralmaganligidan dalolat beradi. Lekin tarixiy vaziyat ayrim elatlarning birikishiga zarurat tug'dirib, ular qabilaviy uyushmalarning ba'zi elementlarini tiklash qobiliyatiga ega bo'lganlar. Masalan, Shahrisabzdagi kenagas qabilasi mahalliy "sart"lar va tojiklar bilan aralashgan bo'lsa-da, o'z qabilaviy, ya'ni etnik birligini unutmagan. Xorazmdagi mang'it qabilasi, hatto Xiva taxtiga ko'tarilib qadimiy o'troq aholi bilan chatishib ketsa ham qabilaviy yaqinligini saqlab qolgan[8]. Ahmadali Asqarov o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini urug'-qabila guruhlaridan elat-xalq shakllanishiga olib kelgan uzoq tarixiy jarayon sifatida yoritadi.[9] Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, ayrim guruhlarda urug'-qabila mansubligining saqlanishini umumxalq shakllanishi bilan birga kechgan hodisa sifatida tahlil qilish mumkin.

Tadqiqotchi olimlarning ta'kidlashicha, o'tmishda o'zbeklarning urug'-qabilachilik, saqlanib kelgan guruhlarida fraternal (aka-uka qarindoshchilik) belgilari namoyon bo'lib, bunday holat qo'shaloq (juft) qabilalar nomida o'z ifodasini topgan. Misol uchun, Xorazmda qiyot-qo'ng'irot, qangli-qanjigali, Zarafshon va Xorazmda qtoy-qipchoq qabilalar. Ba'zan, Chinoz tumanidagi do'rman va qatag'onlar kabi juft qabilalar o'rasida nikoh munosabatlari ustun turgan, ular doimo o'zaro qiz berib, qiz olishgan. Mazkur qabilalar kelib chiqishi va tarixi har xil bo'lganligi tufayli fraternal tartibda emas, balki hudud asosida juftlashganlar.

An'anaviy qadimiy fraternal qabilalarning qoldiqlari to XX asr boshlarigacha ayrim shahar va yirik qishloqlarda raqobatchi jamoalar orasidagi bellashuvlarda ham namoyon bo'lib kelgan. An'anaviy raqobatchilik udumlari qadimiy manzilgohlarning juft qismlar (ikki yoki to'rt)ga bo'linishida o'z ifodasini topgan. Bunday holatni Shahrisabzda shimoliy va janubiy qismlar orasida, Qarshida shahar atrofida joylashgan ikkita el – Charmgor va Buzrukobod aholisi orasida ko'rish mumkin. Toshkentda ham ikki shahar qismi – Shayxontohur bilan Beshyog'och dahalari qarama-qarshi turgan. Ular o'zaro raqobat qilib, maxsus bellashuv marosimlarini shaharning ekingoh maydonida o'tkazganlar. Buxoroda ham bellashuv marosimlari, asosan, hunarmand yoshlar orasida o'tkazilgan. Shahar to'rt raqobatchi qismlarga bo'linib, har qismning nomi bilan raqobat turlari va boshqa bellashuvlar nomlangan.

Raqobatchilik marosimlari Buxoroda bahor faslida juda qiziqarli o'tkazilgan. Shahar devori orasida yoshlar to'planib, dastlab ikki tomon kurash maydoniga jangovar kurashlarini xo'roz yoki bedanalarini, bazan qo'chqorlarni qo'yganlar. Qaysi bir xayvon yengib chiqsa, demak, shu jonivorni qo'ygan tomon g'olib xisoblangan. G'oliblarni olqishlaganlar, mag'lubiyatga uchragan tomon masxaralangan. Navbat odamlarga kelgach, har tomon bir kishini o'rtaga chiqargan. Qoida bo'yicha, avval, biri ikkinchisini mushtlab do'pposlagan, ikkinchi tomon bardosh berib chekinmasdan turgan. Keyin do'pposlash navbati unga o'ttan, raqib ham matonat bilan sabr-toqat ko'rsatishga intilgan. Etnografik ma'lumotlarga qaraganda, bunday raqobatchilik urf-odat va udumlar juda ko'p xalqlarda fratrial tuzum sifatida shakllangan.

O'zbeklarning ijtimoiy turmushidagi eng qadimiy o'ziga xos udumlardan yoshiga qarab guruhlarga bo'linish - bolalik, o'spirinlik, balog'at yetishi va qarilik bo'lib, u bilan bog'liq turli urf-odat va marosimlar xozirgacha saqlanib kelgan. Erkaklaru ayollar yoshiga qarab o'z tengdoshlari bilan to'rtta guruhga bo'lingan bo'lib, ularga har joyda har xil nom berilgan (qator, ulfat, tengqur, jo'ra) va ular o'zlarining tengqurlar davrasini tashkil qilganlar. Bir yoshdagi guruhdan ikkinchi yosh guruhiga o'tish maxsus marosim orqali amalga oshirilgan. Har bir yoshdagi guruh, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan va ular kiyimi, bezaklari, sochining shakli, ijtimoiy burchi va xulq-atvori

[8] O'sha manbaa. –B. 69. (b 210)

[9] Asqarov, A. *O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi*. — Toshkent: Universitet, 2007. — 340 b.

© 2026 Arabian International Conference on Science,Technology and Innovation. All rights reserved.

bilan ham bir oz ajralib turgan. Masalan, Buxoro va Xorazmda yoshiga karab guruhlarga bo‘linib kiyinish odati ilgari keng tarqalgan. Buxorolik qizlarning birinchi marta mursak kaltacha kiyish maxsus odati bo‘lgan. Birinchi bola tuqqan ayol “onalar” guruhiga o‘tishini kiyinishida namoyish qilgan va shundan keyin u bayramlarda, to‘y- tomoshalarda ishtirok qilish xuquqiga ega bo‘lgan[10]. Adhamjon Ashirov o‘zbek xalqining oilaviy marosimlari, xo‘jalik an’analari va moddiy madaniyatida islomiy hamda islomgacha bo‘lgan e’tiqodlarning o‘zaro uyg‘unlashuvini tarixiy-etnografik materiallar asosida yoritadi .[11] Ushbu tadqiqot yuqorida tasvirlangan marosimlarni tarix davomida turli madaniy va e’tiqodiy ta’sirlar bilan boyib borgan an’analar sifatida o‘rganishga asos bo‘ladi.

Erkaklarda yoshiga qarab jo‘rachilik va ulfatchilik asosida tashkil qilinadigan gap (ziyofat) xozirgacha saqlanib kelayottan urf-odatlardan biri. Ayniqsa, qish oylarida qishloqlarda “gap” qilish odat tusiga kirgan. Shaharlarda ham bu odat mavjud bo‘lib, uni nafaqat yoshiga qarab, balki kasb-hunariga va tabaqalariga qarab ham qilishgan. Gap, odatda kuzda boshlanib, butun qish bo‘yi davom etgan.

Xulosa

O‘zbek oilasining o‘ziga xos jihatlari ma’naviy va ijtimoiy qadriyatlarning uyg‘unligida namoyon bo‘ladi. Nikoh va oila masalalaridagi tarixiy, balki zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu qoidalarni ilmiy asosda o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish oila institutining mustahkamlanishiga, jamiyat barqarorligiga va iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishga ulkan xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Norboyev, N. O‘zbek elining qabila va urug‘lari haqida. — Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti nashriyoti, 1997.
2. Jabborov, I. O‘zbeklar: turmush tarzi va madaniyati. — Toshkent: O‘qituvchi, 2003.
3. Qorayev, S. Toponimika: o‘quv qo‘llanma. — Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. — 320 b.
4. Shoniyozov, K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. — Toshkent: Sharq, 2001. — 464 b.
5. Asqarov, A. O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. — Toshkent: Universitet, 2007. — 340 b.
6. Ashirov, A. O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari. — Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.

[10] Iso Jabborov. O‘zbeklar: turmush tarsi va madaniyati. O‘qituvchi. Toshkent. 2003.–B. 70.

[11] Ashirov, A. *O‘zbek xalqining qadimiy e’tiqod va marosimlari*. — Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.